

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA  
NUTQLARINI OSHIRISHNING QULAY USULLARI**

**Qobilova Nasiba Tolibovna**

*Navoiy viloyati Nurota tumani*

*34- umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish albatta ta'lif tarbiya berish bilan birga olib boriladigan jarayon hisoblanadi. Kelajakda bola o'z o'rnini topishi uchun ham muloqotga kirishish qobiliyati bo'lishi lozim. Buning uchun o'quvchining og'zaki hamda yozma nutqi yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Quyidagi maqolada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yozma nutq, og'zaki nutq, ko'rgazmali qurollar, muloqotga kirishish qobiliyati, mashg'ulot rejasi.*

Nutq ikki ko'rinishga ega og'zaki va yozma nutq. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'lsa ham, har birining o'ziga xos xususiyati bor. Og'zaki nutqda tovushlar, so'zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini izlab topishimiz kerak.

Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki bayon etolmagan o'quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to'la rivojlangan yoki shakillangan bo'lavermaydi.

Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda logoped mashg'ulotlar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yukланади. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq ostirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni,

boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi.

Og'zaki nutiqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi) dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nigmalarini shakillantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakillantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib boorish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, histuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari

bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatic jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining asar yuzasidan bergen savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jumlalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o'qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozini o'xshatishga harakat qiladilar.

Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutq normalarini (me'yorlarini) muvaffaqiyatl o'zlashtirishlariga hamda tilning emotsiunal tomonlarini his etish qobiliyati rivojlanishiga, og'zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta'sir etadi.

So'zlashish-suhbat metodidan bolalar lug'atini faollashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali bola lug'atidagi so'zlardan o'rinli foydalanishga, gaplarni to'g'ri tuzishga o'rganib boradi.

Bunda o'qituvchi kichik guruhsda tabiiy obyektlar va ularning modellari (o'yinchoqlar, suratlar)ga tayanish usullaridan, katta guruhlarda esa so'zli didaktik o'yinlardan foydalanadi.

Qayta hikoya qilish metodidan besh yoshli bolalar guruhida tashkil etiladigan ishlarda keng foydalaniladi. Uning yordamida bolalar nutqining leksik, grammatic, intonatsion jihatlari shakllanadi. Ular bog'lanishli dialogik va monologik nutqni badiiy asar namunalari yordamida amaliy tomonidan egallab oladilar. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda o'qituvchining asosiy vazifasi mazkur

yoshdagi bolalarga mos bo‘lgan, mazmuni va tili jihatidan bolalarga tushunarli bo‘lgan asarlarni tanlashdir.

Hikoya o‘ylab topish (to‘qish) metodi bolalarni ijodiy izlanishga, kuzatganlari bo‘yicha hikoya tuzish, xotiradan hikoya tuzish, xayoliy hikoya tuzishga o‘rgatadi. Maqsadga muvofiq hisoblangan ish rejalaridan biri — bu mashg‘ulotning oylik (4 haftalik) ish rejasidir. Oylik ish rejada mashg‘ulotlarning izchilligi, unda ona tilining barcha komponentlari (lug‘at ishi, tovush madaniyatini tarbiyalash, bog‘lanishli dialogik va monologik nutq, tilning grammatic qurilishi)ni rivojlantirish o‘z aksini topadi. Bola nutqining hamma tomonlarini bir vaqtning o‘zida parallel tarzda rivojlantirib borish kerak, chunki bola nutqini o‘stirish bo‘yicha ish vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun bir mashg‘ulotning o‘zida bola nutqini o‘stirishning bir necha vazifalari hal etiladi, ammo ulardan biri asosiy hisoblanib, boshqasi esa mashg‘ulotning bir qismi sifatida rejalashtiriladi. Masalan, gap to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirish, ya’ni so‘zlardan gap tuzish, gapni so‘zlarga ajratish asosiy vazifa qilib rejalashtirilsa, mashg‘ulotning ikkinchi qismi sifatida gapdagi so‘zlar tarkibidagi qiyin talaffuz etiladigan tovushlar talaffuzi ustida mashq qilish rejalashtiriladi.

Har bir mashg‘ulotni rejalashtirishda bolalar bilan ishslash usullari aniqlanadi. Ular mashg‘ulotning murakkablik darajasiga qarab har xil bo‘lishi mumkin: tabiiy materiallar va ularning modellari (o‘yinchoqlar), ko‘rgazmali qurollardan foydalanish (rasmlar, illustratsiyalar, diafilmlar va kinofilmlar), o‘qituvchining nutq namunasi, badiiy matnlar; savol-topshiriqlar, ko‘rgazmali qurollar, tushuntirish, magnitofon tasmalari, so‘zli didaktik o‘yinlar, sahnalaشتirilgan o‘yinlar va hokazolar. Ish usullari nutqni rivojlantirish bo‘yicha vazifalarning mazmuniga (fonetika, leksika, grammatica) va nutqiy malakalarining rivojlanganlik darajasiga qarab tanlanadi.

Mashg‘ulot rejasida (konspektida) testli (matnli) didaktik materiallar — ertaklar, she’rlar, hikoyalar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishuvlar alohida o‘rinni egallaydi. Bu materiallar mavzu jihatidan mashg‘ulotning mazmuni, ta’lim-tarbiyaviy maqsadi, didaktik vazifalari bilan mos kelishi, nutqning ifodaliligini belgilovchi vosita sifatida so‘zlarni morfologik tomondan tahlil qilish, tovushlarni talaffuz etish ustida mashq qilish imkoniyatini ta’minlashi lozim. Bu materiallar obrazli va bolalarga mos bo‘lishi kerak (hajmi, mazmunining murakkabligi, yangi so‘zlarning, tushunchalarning soni, ularning murakkabligi va hokazolar). Rejada yoki mashg‘ulot ishlanmasida quyidagilar o‘z aksini topishi kerak: mashg‘ulotning maqsadi (tarbiyaviy, ta’limiy, ayniqsa, nutqiy vazifa); mashg‘ulotni o‘tkazish joyi (guruh xonasi, boshqa xizmatchi va yordamchi xonalar yoki bolalar bog‘chasining yer maydoni, shahar ko‘chasi, mакtab binosi, xiyobon, bog‘, dala, va hokazolar); ish usullari (kuzatish, suhbat, o‘qituvchining hikoyasi, didaktik o‘yinlar va

hokazo); didaktik materiallar (tabiiy obyekt, o‘yinchoqlar, rasmlar, badiiy asar matni).

Mashg‘ulot rejasi o‘qituvchiga butun bir mashg‘ulotni hamda uning har bir qismi tuzilishini aniq belgilashga, bir ish turidan ikkinchisiga o‘tish vaqtini aniq belgilashga, bolalarning emotsiyalarning reaksiyalariga, nutqiy holatlariiga e’tibor berishga, mashg‘ulot vaqtida yuzaga kelgan holatlarni va vaziyatlarni hal qilishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», T., 1998- yil.
2. Ta’lim taraqqiyoti. Boshlang‘ich ta’lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
3. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 2015-yil.
4. Yangi tahrirdagi DTS - 2020-yil. Boshlang‘ich ta’lim jurnali, 5-son
5. Sh.Rahmatullayev, A.Xojiyev. O‘zbek tilining imlo lug’ati, 1995-yil
6. Abdullaeva K va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari.T.,«O‘qituvchi».2019 – yil.
7. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O‘qish darslari. (O‘qituvchi kitobi.) Toshkent. O‘qituvchi, 2018-yil.